

## DIZAYN TALIM YO'NALISHI TALABALARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH

**Mamaxanova Zebuniso Obidovna**

*Namangan to'qimachilik sanoati instituti asissenti*

**Annotatsiya:** *Maqolada dizayn ta'lim yo'nalishida tahsil oluvchi talabalarni o'qitishda samarali pedagogik texnologiyalarning o'rni va qo'llash uslubi yuzasidan tadqiqot natijalari keltirilgan. Ta'lim texnologiyalari tarkibi 4+2 dasturiga mos keluvchi ma'lumotlar bilan boyitilishini talabalar bilim va ko'nikmalariga ta'siri o'rganilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Ta'lim, metod, uslub, tadqiqot, pedagogik texnologiyalar, fan va madaniyat.*

**Abstract:** *The article presents the results of research on the role of effective pedagogical technologies and methods of application in teaching design education students. The effect of enriching the content of educational technologies with information corresponding to the 4+2 program on students' knowledge and skills has been studied.*

**Key words:** *Education, method, style, research, pedagogical technologies, science and culture.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF – 60-son Farmoniga muvofiq, shuningdek, Respublikada to'qimachilik sanoatidagi malakali kadrlarga bo'lgan extiyojni qondirish maqsadida Namangan shahrida Namangan to'qimachilik sanoati instituti tashkil etildi. Yangi shakllanayotgan oliygohda o'quv jarayonlari Horijning nufuzli oliygohlari ta'lim dasturlariga hamohang tarzda bo'lishi va tizimli takomillashtirib borish belgilandi.

Hususan Dizayn ta'lim yo'nalishi tarkibidagi fanlarning dasturlari 4+2 tizimi asosida horijiy tajribalarni inobatga olgan holda shakllantirildi. Nazariy ta'lim berish vaqtini optimallashtirish va barcha kerakli fanga doir ma'lumotlar bilan boyitish pedagogning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilandi. Qisqa muddatlarda keng qamrovli ma'lumotlarni talabalarga yetkazishda pedagogik texnologiyalarning zamonaviy uslublari hamda yuqori darajadagi informatsion texnologiyalardan foydalanishni taqazo etadi. San'at ta'lim yo'nalishlari talabalarini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash talabani o'ziga xos tomonlarini kashf etish imkoniyatini taqdim etadi. Kostyum dizaynini loyihalashda dars o'tiladigan xonalarni o'ziga xos jixozlash va talabalarni erkin ijod qilishiga shart sharoit yaratish birinchi galdagi vazifa hisoblanadi. Aynan talabalarni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish talabalarda ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va badiiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi, shu bilan birga ularni badiiylikka boy imkoniyatlar dunyosini shakllantiradi.

Tasviriy san'atni o'rganish, amaliyotda katta kuch talab etadi. San'at inson tajribasini kuchli va ifodali tarzda qamrab oladi va namoyon etadi. Unda madaniyat, tarix, xilma-xil istiqbollari, chuqur his-tuyg'ular va asosiy e'tiqodlar aks etadi.

Pedagogik texnologiyaning to'g'ri uslubini tanlanishi talabning barkamol shaxs bo'lib yetishishiga yordam beradi, deb bahslashimiz mumkin. Guruhlarda o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga asoslanib shuni ta'kidlash mumkinki, pedagogik texnologiyaning jismoniy (physical), Kognitiv (Cognitive) va Ijtimoiy (Social), Hissiy afzalliklar (Emotional Benefits) uslublari yuqori natija bermoqda.

Tahlillarimizga ko'ra ta'limda Kognitiv texnologiyani qo'llash talabalarni rivojlanishni kuchaytiradi va ijodkorlik, tahlil qilish, tanqidiy fikrlash va mulohaza yuritish kabi yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlarini mustahkamlaydi. Aynan Kognitiv texnologiyani dizayn ta'lim yo'nalishida qo'llash natijalarini keltirib o'tsak:

Kognitiv-(bilishga oid) atrofdagi olam to'g'risidagi bilimlar doirasini kengaytirish texnologiyasi. U tabaqalash (tarkibiy qismlarga ajratib o'rganish) tafakkurini shakllantiradi, bilish ehtiyojlarini rivojlantiradi.

Kognitiv ta'lim texnologiyasi ma'lum vaqt davomida talabalarning psixologiyasida o'ziga xos o'zgarishlarni yuzaga chiqardi. Ko'pchilik pedagoglar tadqiqot uslubini talabalarning bilim olishlari qamrovi jihatidan boshqa metodlardan qolishmasligi, ayrim jihatlari bilan esa afzalligini ta'kidlashadi. Darsni o'tkazishda o'qituvchi o'rganiladigan mavzu bo'yicha tayyorgarlik ko'rishni axborot, ma'lumot, dalillarni to'plashni talabalarga avvaldan topshirishi mumkin. Yoki o'qituvchining o'zi zarur dalil, ma'lumotlar asosida talabalar oldiga muammo qo'yib, uni birgalikda yechishi mumkin. Bunda amaliy o'yin, turli iqtisodiy modellarni ifodalovchi grafik, jadvalardan va boshqa uslublardan foydalanish orqali tadqiqot o'tkazish, tadqiqotning qiziqarli tarzda bo'lishiga olib keladi, hamda barcha talabalarning faol qatnashishiga erishiladi. Bu usulda butun guruh birgalikda iqtisodiyotni, qolaversa dunyoni yaxshiroq tushunishga intiluvchi izlanuvchilarga aylanishadi. Lekin bu uslubni qo'llash oson emas. Birinchidan, bu uslubda dars o'tish ko'p vaqt talab qiladi. qo'yilgan bir muammoni tadqiq qilish uchun hamma diqqat qaratilib, mavzudagi boshqa masalalar keyinga surilishi yoki qolib ketishi mumkin. Ikkinchidan, tadqiqot uslubi asosida dars o'tish guruh talabalarining barchasining qobiliyati jihatidan bir-biriga yaqin bo'lishini va fikrlashning —kognitiv darajasi yuqori bo'lishini talab qiladi. Bunga ayniqsa 1-kursda erishish qiyin. Uchinchidan, tadqiqot uslubi o'qituvchidan chuqur bilim, tajriba, talant talab qiladi. Chunki tadqiqot o'tkazish uchun o'qituvchining o'zi ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi, tadqiqot jarayonida yuz beradigan har qanday kutilmagan xodisa, talabalar tomonidan qo'yilgan savol, masala yoki muammoga hozirjavob bo'lishi, ulardan aynan tadqiqot o'tkazilayotgan masalani yechishda foydalanish mahoratiga ega bo'lishi kerak.

Pedagogik texnologiyaning asosiy yo'nalishlari hozirgi an'anaviy ta'limni turli yo'nalishlarda takomillashtirish maqsadlarida yaratilib, hozirda rivojlanib bormoqda.

Yuqorida qayd etilgan fikrlarni inobatga olib ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy qilish xususan "Dizayn" ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabarda

o'qitishning zamonaviy usullarini yo'lga qo'yish, o'quv rejalaridagi nazariy ta'lim mashg'ulotlarini kamaytirish va amaliy mashg'ulotlar hajmini oshirish maqsadida "4+2" dasturida o'quv mashg'ulotlarini olib borish yo'lga qo'yilgan. Bundan maqsad shuki talabalar institutda olgan nazariy bilimlarini korxonada amaliyotga tadbiiq etmoqdalar.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. 2022—2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son
2. A.A.Abduqodirov "Pedagogika" va "Psixologiya" fanlaridan keyslar va ulardan foydalanish uslubiyoti.-T.: "Fan va texnologiyalar" 2015
3. H.T.Omonov, N.X Xo'jayev, S.A.Madyarova, E.U.Eshchonov.Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.Toshkent. "Iqtisod- moliya" 2009
4. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)